

2022-yil 31-oktabr

Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash hamda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi



Joriy yilning 31-oktabr kuni "O'zkimyoanoat" AJda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 595-son qarori ijrosini ta'minlash hamda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

“O‘zkiyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Odil Temirov raisligida o‘tgan yig‘ilishda Jamiyatning barcha departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari hamda tizim korxonalari rahbar va mas‘ullari ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 595-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan “O‘zkiyosanoat” AJning 2022-yil 25-oktabrdagi “O‘zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida Odob-axloq komissiyasini tuzish hamda xodimlarning xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishini ta‘minlash to‘g‘risida” 161-son buyrug‘i barchaga o‘qib eshittirildi.

Shu bilan birga, davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi borasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy va tahliliy muhokama qilindi.

Kun tartibidagi ko‘tarilgan masalalar yuzasidan qilinishi lozim bo‘lgan tizimli chora-tadbirlar rejasi belgilab olindi.





“O‘zkimyo sanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-fuqarolik-xizmatchilari-tomonidan-odob-axloq-qoidalariga-rioya-etilishini-taminlash>